

BODRING YETISHTIRISH, UNING ZARARLI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI

Norboyeva Nodirabegim
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
885051752

Annotatsiya. Bodring urug‘larini ekishdan oldin issiqxona tuprog‘ini ekishga tayyorlash lozimdir. Bunda avvalgi ekindan qolgan o‘simlik qoldiqlari issiqxonadan chiqarib tashlanadi. Issiqxona tuprog‘i tekislanadi, kasallik va zararkunandalardan hamda begona o‘tlardan tozalanadi va dizinfektsiya qilishni, uch kun tuproq yuzasiga plyonka yopib, qoldiriladi. Issiqxona tuprog‘i tekislanadi va tomchilatib sug‘orish quvurlari yotqiziladi. Shu yo‘sinda issiqxona tuprog‘i ekishga tayyorlanadi. Biz ushbu maqolada bodringni yetishtirish va uning foydali va zararli xususiyatlari hamda yuqoridagi ma’lumotlar haqida fikr yuritdik.

Kalit so‘zlar: Bodring, issiqxona, sabzavotchilik, hosildorlik, orzu Fi, multisar FJt Cucurbitaceae, shoxlanuvchan, qirrali, tukli.

Абстрактный. Прежде чем сажать семена огурцов, необходимо подготовить тепличную почву для посадки. Растительные остатки предыдущего урожая удаляются из теплицы. Почву теплицы выравнивают, очищают от болезней, вредителей и сорняков и дезинфицируют, накрывают пленкой поверхность почвы на три дня и оставляют. Почва теплицы выравняется и прокладываются трубы капельного орошения. Таким образом почва теплицы готовится к посадке. В этой статье мы подумали о выращивании огурца, его полезных и вредных свойствах, а также вышеизложенной информации.

Ключевые слова: Огурец, теплица, овощеводство, продуктивность, желание Fi, multisar FJt Cucurbitaceae, ветвление, остроконечное, опушенное.

Abstract. Before planting cucumber seeds, it is necessary to prepare the greenhouse soil for planting. Plant residues from the previous crop are removed from the greenhouse. The soil of the greenhouse is leveled, cleaned of diseases and pests and weeds and disinfected, covered with a film on the surface of the soil for three days and left. The soil of the greenhouse is leveled and drip irrigation pipes are laid. In this way, the soil of the greenhouse is prepared for planting. In this article, we thought about the cultivation of cucumbers and its beneficial and harmful properties, as well as the above information.

Key words: Cucumber, greenhouse, vegetable growing, productivity, desire Fi, multisar FJt Cucurbitaceae, branching, pointed, hairy.

Kirish

Bodring – bir yillik, o‘t o‘simlikdir. Vatani — Hindiston hisoblanadi, ammo hozir dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida yetishtiriladi. Issiqsevar o‘simlik hisoblansada, vegetatsiya davrining qisqaligi sababli yer kurrasining shimoliy o‘lkalarida ham yetishtiriladi. O‘zbekistonda sabzavot ekini sifatida keng ekiladi, yetishtirish maydonlari bo‘yicha pomidor, piyoz, sabzi, oq bosh karam sabzavotlaridan keyingi o‘rinda turadi. O‘zbekistonda taxminan 8000-10000 gektar maydonda yetishtiriladi.

Bodring madaniy holda 3 ming yil ilgari yetishtirila boshlangani haqida ma’lumotlar bordir. Vatani Hindistonning tropik va subtropik rayonlari hisoblanib, Himolay tog‘ yonbag‘irlarida haligacha tabiiy holda o‘sadi. Hindistondan Gresiya va Italiyaga tarqalgan va keyinroq Xitoyga ham yetib borgan. Evropaning boshqa qismlariga rimliklar tomonidan olib kirilgan. Bodring Fransiya hududiga 9-asrda, Angliyaga 14-asrda, Shimoliy Amerika qit‘asiga 16-asr o‘rtalarida kirib borgan. Rossiyaga bodring Sharqiy Osiyo davlatlaridan 16-asrlarda kirib borgan degan taxmin bor (olmon elchisi Gerbershteynning Fors o‘lkasi va Moskovyaga bo‘lgan safari xotiralari), lekin ayrim tarixchilarning fikriga qaraganda bodring Rus o‘lkalarida 9-asrlarda ham ma’lum bo‘lgan.

Poyasi yer bag‘irlab o‘sovchi, palakli o‘simlik, gajaklari oddiydir. O‘simligi 4-5 ta barg hosil qilgach, yerga yotib, yoyilib palak otadi yoki gajaklari yordamida atrofdagi narsalarga chirmashib o‘sadi. Poyasi shoxlanuvchan, yumaloq, yumaloq-qirrali yoki qirrali, tuklar bilan qoplangan bo‘ladi. Asosiy poya, so‘ngra uning barg qo‘ltiqlaridan birinchi tartibli va ikkinchi tartibli yon shoxlar hosil bo‘ladi. Bodring o‘simligi naviga, oziqlanish maydoni va haroratga bog‘liq holda sust, o‘rtacha va kuchli shoxlanuvchan bo‘ladi. Shoxlanish turiga qarab bodring navlari bir poyali, kuchli- (yon shoxlari 8 dan ko‘p), o‘rtacha- (5-8 tagacha yon shoxlar) va sust- (1-4 tagacha yon shoxlar) shoxlanuvchan poyali navlarga bo‘linadi. Poyaning uzunligi nav va yetishtirish shart-sharoitlariga qarab belgilanadi: ochiq maydonda asosiy poya 1-1,5 metr, qulay sharoitlar tug‘ilganda 3 metrgacha, issiqxonalarda 5 metrgacha o‘sadi. Poyasi ingichka (diametri 0,5 cm kam) va qalin (0,5 cm dan ko‘p) bo‘lishi mumkin. Kalta palakli bodring navlari odatda tezpishar, mevasi nisbatan kalta, vegetatsiya davri qisqaligi bilan xarakterlanadi. Naviga qarab bodring o‘simligi sust, o‘rtacha va kuchli barglangan turlarga ajratiladi.

Barglari poyada navbatma-navbat joylashadi. Barg plastinkasi butun, yuzasi tekis yoki ajinli, barg qirrasi ham odatda tekis. Shakli naviga qarab yumaloq panjasimon yoki oval panjasimon bo‘lishi mumkindir.

Ildiz tizimi sterjensimon, kuchli tarmoqlanadi. U 1 metrgacha o‘sovchi asosiy ildiz va ko‘p sonli qo‘shimcha ildizlardan tashkil topgan. Tuproqdan oziq moddalar eritmasini so‘rish kabi fiziologik funksiyani tukchalar bilan qoplangan kichik so‘ruvchi

ildizlar amalga oshiradi. Ildiz tizimining asosiy qismi tuproqning 20-25 cm qatlamida rivojlanadi, ildizning yon tomonga tarqalib o‘shish radiusi 1,5 metrgacha bo‘lishi mumkin. Yuqori namlikda asosiy va yon shoxlari tuproqqa tegsa qo‘shimcha ildizlar hosil bo‘lishi mumkin.

Bodringning ko‘pchilik nav o‘simliklari bir uyli ikki jinsli, ya’ni erkak va urg‘ochi gullar bitta o‘simlikning o‘zida joylashgan bo‘ladi. Erkak gullari poyada odatda 5-7 ta bo‘lib, to‘p gul hosil qiladi, bir uyli bodring navlarida ko‘pchilik hollarda erkak gullarning soni urg‘ochi gullarnikiga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Urg‘ochi gullar poyada 1 ta yoki juft, ayrim hollarda 3 ta bo‘lib joylashadi. Asosan urg‘ochi gullar hosil qiluvchi bodring navlari oldiga changlanish uchun yetarli darajada erkak gullar hosil qiluvchi navlar birga ekiladi. Gultojibarglari yorqin sariq rangli, erkak gullarida 5 ta changchi bo‘lib shundan 4 tasi juft xolda bittasi yakka holda bo‘ladi. Bodring gullari ko‘p yashamaydi: erkak gullari 1-2 kundan so‘ng, urg‘ochi gullar esa gullagandan keyin 3-4 kundan keyin so‘lib qoladi. Faqatgina changlangan urg‘ochi gullaridan meva hosil bo‘ladi, changlanmaganlari to‘kilib ketadi. Bodring chetdan changlanuvchi o‘simlikdir. Partenokarpik navlarida gullari changlanishga muhtoj emas, ammo bunday gullardan meva hosil bo‘lsa-da, mevalarida urug‘ bo‘lmaydi.

Bodring mevalari soxta rezavor bo‘lib, 3-5 urug‘ kameralari hosil qiladi. Shakli, rangi, o‘lchamlari va vazni navlariga qarab o‘zgaradi. Bodringning pishmagan barra mevalari iste’mol qilinadi. Naviga qarab sirti tekis, notekis yoki cho‘tir bo‘lishi mumkin. Meva uzunligi barraligida 5-70 sm gacha, rangi yashil yoki to‘q yashil bo‘lishi mumkin, biologik pishganida esa meva kattalashadi, rangi och sariq, to‘q sariq yoki jigarrang tusga kiradi. Mevalari biologik pishganida urug‘lik deb ham yuritiladi. Bitta mevada 100-400 tagacha urug‘ hosil bo‘ladi. Urug‘lari uzunchoq-ovalsimon, oq tusli och sariq rangli, 1000 tasining vazni 16-35 gramm keladi. Unuvchanligini 6-8 yilgacha saqlaydi. 2-3 yillik urug‘lari yaxshi hosil beradi.¹

Tadqiqot metodologiyasi

Bodring sabzavotlar ichida eng sersuvi bo‘lib, inson organizmi uchun juda foydali ne’matlardan biridir. Bodring tarkibining 90 foizdan ortig‘ini suv tashkil etadi. Ushbu sabzavotda kraxmal, shakar, oqsil, kletchatka, organik kislotalar, efir moyi, bir qator darmondorilar, kaliy, kalsiy, natriy, magniy, temir, fosfor, yod, oltingugurt, qalay, mis, ftor, xrom, alyuminiy kabi moddalar mavjud.

Shuningdek, bodring ovqat hazm qilish bezlarining faoliyatini va so‘lak ajralishini me’yorlashtirib, oqsil moddasini yanada yaxshiroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Shuning uchun bodringning suvli bo‘lakchalari taomni nafaqat chiroyli va xushta’m qiladi, balki hazm qilish jarayonini ham yaxshilaydi.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bodring>

Bodring qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va buyraklar salomatligini mustahkamlaydi. Muntazam ravishda iste'mol qilinsa, saraton xavfini bartaraf etadi. Ovqat hazm qilish tizimiga yaxshi samara ko'rsatadi va ortiqcha vazndan xalos bo'lishga ko'maklashadi.

Sharbati isitma tushirish xususiyatiga ega, yo'tal, bo'g'im kasalliklari, yurak bilan bog'liq shishlarda foyda beradi. Bodring po'stlog'i yuzning rangi va tiniqligini saqlashda, teri kuyishi hamda shishlar paydo bo'lganda yordam beradi. Po'stning quritib ezilganidan teri kasalliklari va toshmalarda foydalanish tavsiya etiladi. Bodring allergiya chaqirmaydi, shu sababli uni allergik kasalliklarga chalingan bemorlar bemalol iste'mol qilishlari mumkindir.

Uzluksiz davom etgan mehnat faoliyati sabab ba'zan ko'z atrofida, pastki qovoqlarda qorayish kuzatiladi. Bu holatda bodring parrak shaklda kesib, 3-5 daqiqa davomida muzlatkichda sovuting va 10 daqiqaga qoraygan joyga qo'ying. Xuddi shu usul yuzdagi husnbuzar va qora dog'larni ketkizishda, quyosh nuri sabab kuygan joylarni zararsizlantirishda ham samarali bo'ladi.

Bundan tashqari, ko'p miqdorda tuz tufayli tuzlangan bodringning zarari bosimning oshishi, shishish, tanadagi suyuqlikni ushlab turish bilan ifodalanishi mumkin bo'ladi. Mutaxassislarning aytishicha, tuzlangan bodringni tez -tez ishlatish bilan ular yuqori kislotalilik tufayli tishlarning emalini yo'q qiladi. Shifokorlar, shuningdek, jigar kasalliklari, podagra, yurak xastaliklari bilan og'rigan odamlarga mahsulotni suiiste'mol qilishni tavsiya etmaydi. Homilador ayollar uchun bodringni tuzlashning zarari bor. Ular toksikoz ko'rinishini qo'zg'atishi, ko'ngil aynishi va yonish sabab bo'lishi mumkindir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Amerikalik professor va klinik farmakologiya bo'yicha mutaxassis Ayk S. Arakelyan hozirda bodringni o'rganish bilan shug'ullanadigan va bir nechta ilmiy maqolalar chop etgan kam sonli kishilardan biridir. Mutaxassisning fikricha, unda ba'zi vitaminlar saqlanib qolgan. Misol uchun, K vitamini suyaklarni mustahkamligida alohida ahamiyatga ega. Bir dona o'rtacha bodringda 8,5 mikrogram K vitamini mavjud, ayollarga kuniga 90 mikrogramm, erkaklar esa 120 mikrogramm iste'mol qilish tavsiya etgan.

Tahlil va natijalar

Bodring ko'p suv talab qiladigan o'simlik hisoblanadi. Asosan o'simlikni yoshligida ko'chat atroflari yumshatiladi. Bodring yotib o'suvchi o'simlik shu sabab 90x25 sxemada ekish maqsadga muvofiqdir.

Tuproqni tayyorlash. Bodring ko'chatlarini ekishdan oldin issiqxona tuprog'ini ekishga tayyorlanadi. Eng avval issiqxona tuprog'i tekislanadi. Ekishga mo'ljallangan maydon kasallik va zararkunandalardan hamda begona o'tlardan tozalash maqsadida shaffof polietilen plyonka bilan yopib qizdiriladi. Bunda tuproq usti yopilgan holatda

1-1,5 oygacha turadi. So‘ngra plyonka olib tashlanib, issiqxona tuprog‘i tekislanadi va tomchilatib sug‘orish quvurlari yotqiziladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari Davlat reestriga 2020-yilda issiqxonalar uchun mahalliy “Navbahor”, “ToshDAU-70”, “Elegant”, “Samar” kabi birinchi avlod duragaylar va chet el duragaylaridan “Roki”, “Fokus”, “Eliza”, “Sultan”, “Majestik”, “Seydra Alamir”, “Alanis”, “Adrian”, “Barxan, Valeystar”, “Kristina”, “Multistar”, “Melen”, “Nail”, “Orzu”, “Passandra”, “Pikolino”, “Pontiya”, “Seray”, “Superdelta”, “Jazzer”, “Xarman”, “Luna”, “Tristan” kabi bir qancha duragaylar tavsiya etilgan.²

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, bodringni innovatsion usulda bochkalarda yetishtirish o‘zining bir muncha afzalliklari bordir ulardan bodringni parvarishlashda ularni oz joy egallashi qolaversa ozuqa moddalar bilan birday ta‘minlashning osonligidir. Qolaversa noqulay ob havo sharoitida o‘simliklarni himoyalashning qulayligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yunusov S.A Abdiyev Z.T “Issiqxonalarda sabzavot ko‘chatchiligi” 2020.
2. Zuyev V.I Abdullayev A.G “Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi” 1997.
3. Zuyev V.I, Ataxodjayev A.A Sh.I Asatov, A.K Kadirxodjayev U.I Akramov “Himoyalangan yer sabzavotchiligi” Toshkent – 2018
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bodring>
5. <https://uz.pastureone.com/25858-an-unusual-way-to-grow-cucumbers-in-a-barrel>

² Zuyev V.I Abdullayev A.G “Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi” 1997.